INKLYUZIV IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHGA BO‘LGAN NAZARIY QARASHLAR EVOLYUTSIYASI

Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti
mustaqil tatqiqotchisi
Nazirova Iroda Nigmatjon qizi
Irodaxoon26@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada inklyuziv iqtisodiyot tushunchasining shakllanish jarayoni nazariy-tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda ko‘rsatilishicha, inklyuziv iqtisodiyot g‘oyasi mustaqil ilmiy kategoriya sifatida emas, balki iqtisodiy o‘sish, daromadlar taqsimoti, ijtimoiy adolat va inson kapitali rivojlanishi kabi masalalar kesimida bosqichma-bosqich shakllangan. Maqolada klassik siyosiy iqtisod maktabi vakillari (A.Smit, D.Rikardo, J.S.Mill)ning mehnat unumdorligi, bozor erkinligi va taqsimot munosabatlariga oid qarashlaridan boshlab, A.Pigu farovonlik iqtisodiyoti, J.M.Keyns bandlik va samarali talab nazariyasi, shuningdek rivojlanish iqtisodiyoti vakillari (A.Lyuis, G.Myurdal, S.Kuznets)ning tengsizlik va tarkibiy o‘zgarishlarga oid konsepsiyalarigacha bo‘lgan nazariy evolyutsiya izchil yoritilgan. Xususan, S.Kuznetsning “o‘sish – tengsizlik” gipotezasi asosida iqtisodiy o‘sishning o‘z-o‘zidan inklyuziv natijaga olib kelmasligi, balki bu jarayonning institutlar sifati, davlat siyosati, mehnat bozori va ta’lim tizimi kabi omillar orqali belgilanishi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari inklyuziv iqtisodiyot nazariyasining metodologik asoslarini chuqurroq tushunish, shuningdek amaliy iqtisodiy siyosat ishlab chiqishda foydalanish uchun nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: inklyuziv iqtisodiyot, iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy adolat, daromadlar taqsimoti, farovonlik iqtisodiyoti, bandlik, institutsional rivojlanish, tengsizlik.

Inklyuziv iqtisodiyotni shakllantirish nazariy qarashlar evolyutsiyasi iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy adolat, inson kapitali, institutsional jihatdan barqaror rivojlanish

konsepsiyalarining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida vujudga kelgan murakkab ilmiy yo‘nalishlardan hisoblanadi. Mazkur tushuncha iqtisodiyot nazariyasida dastlab mustaqil kategoriya sifatida emas, balki boylik yaratish, mehnat taqsimoti, daromadlarni taqsimlash, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash masalalari kesimida shakllangan.

Iqtisodiy fan tarixidagi dastlabki maktab yo‘nalishlaridan bo‘lgan klassik siyosiy iqtisod vakillaridan A.Smit, D.Rikardo, J.S.Mill tomonidan iqtisodiy taraqqiyot manbai sifatida mehnat unumdorligi, bozor erkinligi, kapital jamg‘arilishi va taqsimot munosabatlarini asosiy omillar sifatida o‘rganilgan. Xususan, A.Smitning “Millatlar boyligi” to‘g‘risidagi ta’limotida bozor erkinligi va mehnat taqsimoti iqtisodiy farovonlikni ta’minlashning muhim sharti sifatida talqin etilsa-da, klassik iqtisodiy nazariya maktabida iqtisodiy o‘sish natijalarining aholi turli qatlamlari o‘rtasida qanday taqsimlanishi masalasi hali alohida inklyuzivlik mezoni sifati darajasiga ko‘tarilmagan. Yana bir klassik iqtisodiy maktab namoyondasi D.Rikardo esa daromadlarning ish haqi, foyda va renta shaklida taqsimlanishi orqali iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy oqibatlariga alohida e’tibor qaratgan. [1]Bunday yondashuvlar keyinchalik inklyuziv iqtisodiyot nazariyasida muhim o‘rin tutgan “o‘sish natijalarini taqsimlash”, “mehnat daromadlari ulushi” va “iqtisodiy imkoniyatlarga teng baholash” kabi kategoriyalarning ilmiy asosi sifatida xizmat qilishiga turtki bo‘lgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida iqtisodiy maktablardan marjinalizm, neoklassik iqtisodiyot va ijtimoiy farovonlik iqtisodiyotining shakllanishi inklyuzivlik g‘oyasining keyingi bosqichlarda rivojlanishi uchun nazariy zamin yaratdi. A.Pigu tomonidan ilgari surilgan farovonlik iqtisodiyotida, bozor natijalari har doim ham ijtimoiy maqbul natijani ta’minlay olmasligi, davlat tomonidan soliq, transfertlar va ijtimoiy siyosat vositalari orqali ijtimoiy farovonlikni oshirish zarurligi asoslangan. Shuningdek, bu bosqichda iqtisodiy siyosatning maqsadi faqatgina yalpi ishlab chiqarish hajmini oshirish emas, balki jamiyat ijtimoiy farovonligini ta’minlash, tashqi ta’sirlarni yumshatish va ijtimoiy tengsizlikni

kamaytirish bilan bog‘liq holda talqin etilgan.

O‘sha davrlarda buyuk inqilobiy to‘ntarish yasagan keynschilik iqtisodiy ta’limot vakillari inklyuziv iqtisodiyot nazariyasi evolyutsiyasida alohida o‘rin tutdi. Maktab asoschisi davr buyuklaridan bo‘lgan J.M.Keyns bozor iqtisodiyoti o‘z-o‘zidan to‘liq bandlikni ta’minlay olmasligini, iqtisodiy buhronlar, mamlakatdagi ishsizlik va talabning yetishmovchiligi sharoitida davlatning fiskal va pul-kredit siyosati orqali iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishi zarurligini asosladi. Keynschilik iqtisodiy ta’limoti yondashuvida bandlik, aholi daromadlari va samarali talab o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy barqarorlik bilan uyg‘unligini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida qaraldi. Mana shu jihatdan, inklyuziv iqtisodiyotning keyingi davrlarda nazariy jihatdan taraqqiyotida “to‘liq va samarali bandlik”, “aholi daromadlarining barqaror o‘sishi” hamda “davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tartibga soluvchi roli” kabi masalasi muhim metodologik asosga aylandi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda rivojlanish iqtisodiyotining shakllanishi inklyuziv iqtisodiyot g‘oyalarini yanada kengaytirdi. A.Lyuisning ikki sektorli modeli, G.Myurdalning kumulyativ sababiyat nazariyasi, S.Kuznetsning iqtisodiy o‘sish va daromadlar tengsizligi o‘rtasidagi bog‘liqlikka oid qarashlari rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashuv, mehnat migratsiyasi, urbanizatsiya va tarkibiy o‘zgarishlar aholi farovonligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushuntirishga qaratildi. Ayniqsa, S. Kuznes tomonidan ilgari surilgan gipotezaga ko‘ra, iqtisodiy o‘sishning dastlabki bosqichlarida tengsizlik ortishi, keyinchalik institu-sional rivojlanish va daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmlari kuchayishi natijasida pasayishi mumkin. Bu nazariya inklyuziv iqtisodiyot uchun muhim saboq beradi: iqtisodiy o‘sish avtomatik tarzda inklyuziv natijalarga olib kelmaydi; uning ijtimoiy samarasi davlat siyosati, institutlar sifati, mehnat bozori va ta’lim tizimi orqali belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.

2. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. – London: John Murray, 1817.

3. Mill J.S. Principles of Political Economy with some of their Applications to Social Philosophy. – London: John W. Parker, 1848.

4. Pigou A.C. The Economics of Welfare. – London: Macmillan and Co., 1920.

5. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.

6. Lewis W.A. Economic Development with Unlimited Supplies of Labour // The Manchester School. – 1954. – Vol. 22, No. 2. – P. 139–191.

7. Myrdal G. Economic Theory and Under-Developed Regions. – London: Gerald Duckworth & Co., 1957.

8. Kuznets S. Economic Growth and Income Inequality // The American Economic Review. – 1955. – Vol. 45, No. 1. – P. 1–28.